

XORAZM HUNARMANDCHILIGI
(rivojlangan o'rta asrlar kulolchiligi misolida)

Bakdurdiyeva Qunduz Quvondiq qizi
Ma'mun universiteti Nodavlat Ta'lim Muassasasi Iqtisodiyot va gumanitar
fanlar fakulteti Tarix kafedrasi o'qituvchisi
g-mail: yakubovakilara@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo xususan Xorazmda XII – XVI asrlarda kulolchilik mahsulotlarining turlari va ulardagi naqshlarning xilma-xilligi yozma manbalar va arxiv hujjatlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ko'za, kosa, lagan, tovoq, likobcha, E.E.Nerazik, N. N. Vakturskaya, Mizdaxkon.

KHORAZM CRAFT
(in the example of developed medieval pottery)

Bakdurdiyeva Kunduz Kuvondik's daughter
Teacher of the Department of History, Faculty of Economics and
Humanities, Mamun University Non-State Educational Institution
g-mail: yakubovakilara@gmail.com

Abstract: In this article, the types of pottery products and the diversity of their patterns in Central Asia, especially Khorezm in the 12th - 16th centuries, are covered based on written sources and archival documents.

Key words: jug, cup, plate, saucer, E.E. Nerazik, N.N. Vakturskaya, Mizdakhkon.

ХОРАЗМСКИЙ РЕМЕСЛЬ
(на примере развитой средневековой керамики)

Дочь Бакдурдыевой Кундуза Кувондика
Преподаватель кафедры истории экономико-гуманитарного
факультета НОУ «Университет Мамун»
электронная почта: yakubovakilara@gmail.com

Аннотация: В данной статье на основе письменных источников и архивных документов освещены виды керамических изделий и разнообразие их узоров в Средней Азии, особенно в Хорезме в XII-XVI веках.

Ключевые слова: кувшин, чашка, тарелка, тарелка, блюдце, Е.Е. Неразик, Н.Н. Вактурская, Миздахкон.

О’рта Осиyo hududida kulolchilik o’ziga xos shaklda rivojlangan. Kulolchilik mahsulotlari asosan loydan turli shakllardagi ko’za, kosa, lagan, tovoq kabilar tayyorlangan. O’рта Osiyo kulolchiligi o’zining naqshinkorligi, nafis uslublarning qo’llanishi bilan ajralib turadi. Kulolchilik tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak qadimgi sopol buyumlar dastlab neolit davrida paydo bo’lgan. Bronza davrida kulolchilik charxi yaratilgan bo’lib keyinchalik kulolchilik buyumlariga turli naqshlar tushirila boshlanganligini ko’rishimiz mumkin. Vaqt o’tgani sayin kulolchilik buyumlari ancha takomillashib turli xil buyumlarga bo’lina boshlandi.

O’рта Osiyoda, xususan, Xorazm hududida kulolchilik alohida ahamiyat kasb etgan. Xorazm kulolchiligi XII – XVI asrlarda ancha rivojlangan va uning texnikasi, naqsh berish usullari ham yangilandi. Xorazm kulolchiligi rivojlangan o’рта asrlarda yangi bosqichga kirdi. Kulolchilik mahsulotlarining tashqi ko’rinishlari va naqshlarida turli o’zgarishlar sodir bo’ldi. Bu davrga oid kulolchilik mahsulotlari turlari XX asrning 50-60-yillarida E.E.Nerazik va N. N. Vakturskayalar tomonidan o’rganilgan. Lekin ularning izlanishlari o’рта asrlar davri kulolchigini to’liq ochib bera olmagan. XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshlanida O’zR FA Qoraqalpog’iston bo’limi (1959), yangi muzeylar, Xorazm Ma’mun akademiyasi (1997) qayta tashkil topishi natijasida Xorazm kulolchiligi tarixiga oid yangi tadqiqotlar jamoatchilikka taqdim qilindi.

“XIII-XV asrlarda voha kulolchiligida uy sharoitida, qo’lda yasalgan idishlar ancha kamayadi va, asosan, kulolchilik charxida yasalgan ommaviy mahsulotlar va maxsus qoliplarda tayyorlangan koshin tipidagi buyumlar – idish-tovoq, me’moriy bezak taxtachalari (maolika va mozaika), taqinchoqlar keng ommalashadi”¹. Xususan, O’рта Osiyo hududida kulolchilik charxida tayyorlangan idishlar ancha nafis va bejirim qilib tayyorlash jarayonida uni turli shaklga oson keltirish mumkin.

O’рта Osiyo xususan Xorazm kulolchiligida, asosan, 2 xil yo’nalishda tayyorlangan sopol buyumlar shakllandi. Birinchidan, mahsulotlar sirlangan va

¹ Якубовский А. Ю. Городище Миздахкан. – Л.: АН СССР. 1930. Т. V. – С 573



silliqlangan buyum turlariga bo'lindi. Ikkinchidan, sopol buyumlar o'z vazifasiga ko'ra turlarga bo'lindi.

O'rta Osiyo kulolchiligida sirlangan idishlarni tayyorlash XII – XIV asrlarda o'z taraqqiyotining eng yuqori darajasiga ko'tarildi. Bu davr kulolchiligida mahsulotlar, asosan, kul rang loydan ishlanib, yuza qismi qora rangda angoblanib, usti maxsus kulolchilik asboblarida silliqlanib, yaltiroq sayqal berila boshlanadi. “Bu kabi sayqallash uslubini Xorazm hududidagi qator yodgorliklardan qazib olingan topilmalar bilan qiyosiy solishtirish ularning texnologik ishlanishi jihatidan Kushonlar davri sayqallash va naqshlash an'alariga o'xshashligini ko'rsatadi”². Sayqallash usuli O'rta Osiyo hududida ancha ommalashgan bo'lib qandimgi davrlardan bu uslubdan foydalanib, ancha takomillashtirilganligini Xorazm hududidan topilgan ashyolarning naqshlari orqali ko'rishimiz mumkin.

Xorazm kulolchiligida xumlar o'zining nafisligi bilan ajralib turadi. Xumlar vaqt o'tishi bilan o'zining shakli va ko'rinishini o'zgartirdi. XIV – XV asrlarda Xorazmda yangi shakldagi xumlar ishlab chiqarilgan. Ularning to'mtoq gardishi tashqariga qayrilgan bo'lib, o'zi esa cho'zinchoq “tuxumsimon” shaklda, tagi tekis bo'lgan. Bo'yin qismida barmoq bilan bosilgan belgilar yoki chizma bezaklar uchraydi, sirtiga qora angob surtilgan. O'rta asrlarda xumlardan turli don-dun mahsulotlarini solib qo'yishda, sharob saqlashda ishlatilgan.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda ko'zalarning tashqi ko'rinishida temir buyumlarga taqlid qilish hollari ko'p kuzatildi. Xorazmda ko'zalari tuzilishi, shakli jihatidan antiqa naqshlarning qo'llanishi bilan ajralib turadi. Ko'zalar – ular qora rangda angoblangan, sirtqi qismiga yaltiratib ishlov berilgan. “Maxsus asboblar yordamida ko'zalarga yaltiratib sayqal berilishiga, olimlarning fikricha sirti yaltiroq temir buyumlarga taqlid qilishi sabab bo'lgan”³. Shu jumladan, Ko'zalarning ko'rinishiga yangilik sifatida yaltiratib sayqal berila boshlandi. ko'zalarning ko'rinishi sirti yaltiroq temir buyumlarga o'xshab qolganligi uchun bu davrda yaltiratib sayqal berish usuli ommalashganligini ko'rishimiz mumkin. “Ayrim shishasimon ko'zalarga tuyg'un qora rangda bo'ynidan pastga qarab aylanma “qo'chqor shox” shaklda naqsh berilgan. Bu uslubda aylanma naqshlar solish

² Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода... - С. 155, 165.

³ Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма(IX-XVII в.в)//ТХАЭЭЮ – М.:АН СССР, 1959. Т. IV. – С. 308;

Шишкин Г.В. Глазурованная керамика Согда (вторая половина - VIII начало XIII в.) – Ташкент: Фан, 1979. – С. 33.



Xorazm kulolchiligi uchun yangilik bo'lmasdan, ilk Qang' davridan (mil. avv. IV – II asrlar) ma'lum⁴. Qang' davriga oid kulolchilik mahsulotlarida ham shu turdagi naqshlar topilgan va bu Xorazm kulolchiligida o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Ilk Qang' davrida ham kulolchilik ancha rivojlanganligi va Xorazm bilan ham turli sohalarda aloqalari borligini naqshlarining bir-biriga o'xshab ketishidan ham bilib olishimiz mumkin.

Xorazm kulolchiligida kosa (piyola)lar ham alohida o'ringa ega. Usta kulollar Kosa (payola) larning naqshlariga alohida etibor berishgan, asosan o'simlik tarsvirlari bilan bezatilgan. O'rta asr kosa (piyola)larida naqshlarining murakkablashuvi yuz berdi. XII – XV asr kosalari asosan yarim sferik shaklda bo'lib, gardish kesimi va xalqasimon tagligi bilan ajralib turadi. XIII – XV asrlarga kelib, Xorazm hududidagi ayrim shahar yodgorliklarida sirsiz kosa va shu kabi idishlarga zoomorf (baliq, ilon) va o'simlik shaklidagi tasvirlarni tushirish rasm bo'lgan. Bu tasvirlar ko'proq “lola guli” shaklidagi yaltiroq naqshlar tarzida berilgan. Kosa (payola) larda asosan turli naqshlarning tushirilishi, hunarmandning didiga qarab turli naqshlarning ishlatilishi mahsulot nafisligini oshirdi.

Xorazm kulolchiligida qozonlar alohida ahamiyatga ega. Qozonlarning tayyorlanishi boshqa kulolchilik mahsulotlariga qaraganda boshqacharoqdir. Qozonlar – dumaloq va cho'zinchoq, pastga qarab ancha kengaygan shaklga ega. Ularni o'tga chidamli qilish uchun loyi tarkibiga maydalangan eski sopol (shamot) qo'shilgan. Shuningdek, qozonlar qo'lda tayyorlangani bois qo'polroq joylari pichoq bilan tekislanib, maxsus ishlov berilgan. Bunday qozonlar XII – XIV asrlarda vohada tarqalgan tosh qozonlarni shaklan takrorlaydi.

O'rta Osiyo kulolchiligida Sirlanmagan sopol mahsulotlar digir-chig'ir ko'zalar, qozon va ko'zalar qopqog'i, chiroqlar va boshqa standartlanmagan, lekin, asosan, dastgohda tayyorlangan buyumlar to'ldiradi. Ular ham kul rang loydan yasalgan, sirtiga bejirim yaltiroq sayqal berilgan.

“Arxeologik tadqiqotlar oqibatida Mizdaxkon yodgorligida hunarmand kulollar mahallasi va kul rang, qora angobli idishlar tayyorlangan bir necha xumdonlar o'rganilgan”⁵. Bundan ko'rinadiki XIII – XIV asrlarda Mizdaxkon

⁴ Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода... - С. 93.

⁵ Турабекова М.Т. Раскопки жилого массива гончаров средневекового Миздахкана // АП. – Нукус, 2003. Вып. – С. 69-72; Кдырниязов М. Ш., Искендерова А.Ж., Саипов С. Т. Гончарные печи средневекового Миздахкана// вестник ККО АН РУз. – 2004. - №1. – С. 103-106.

kulollari ma'lum bir idishlarni ishlab chiqarish bo'yicha hamda mutaxassisliklari bo'yicha maxsus guruhlariga bo'lingan. Bundan tashqari Mizdaxkon o'sha davr kulolchiligining markazi bo'lganligini tasdiqlaydi. Mizdaxkonda tayyorlangan noyob hunarmandchilik mahsulotlari boshqa davlatlarga ham chiqarilgan ekan. “Bunday kul rang qora angobli idishlar Janubiy Turkmaniston (Shahriisлом), Shimoliy Qora dengiz (Azoq), Sharqiy Kaspiy dengizi atroflaridan (Saroychiq), Volga bo'yidagi (Saroy) XIII – XIV asr yodgorliklaridan topib o'rganilgan”⁶. Bu hududlardan topilgan idishlar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ancha yaxshi bo'lganligini va kul rang qora angobli idishlarning bozori chaqqon bo'lganini isbotlaydi.

Kulolchilik mahsulotlari ichida likobchalar shakli jihatidan laganlarga o'xshash bo'lgan. Likobcha – lagan shaklidagi idishlar tagligi uchta bo'rtiq oyoqchalarga ega bo'lib, “ilon” ko'rinishidagi chizma bezak shaklida tayyorlangan va unga taqlidan yaltiratma usulda naqshlangan. Bunday ko'rinishlardagi idishlarni Xorazmning o'rta asr yodgorliklarida ko'plab uchratishimiz mumkin ya'ni bunday idishlar ancha keng tarqalgan. Jumladan, Jigarband yodgorligidan topilgan uch oyoqli ko'za va g'ulcha o'yma-kesma naqshlar bilan bezatilgan bo'lsa, Jampiqqal'a qazishmalarida esa “ilon” tasvirli bo'rtiq oyoqchalarga ega likobchalar ko'plab uchraydi. Likobchalarning ko'rinishi alohida uslubni aks ettirgan yani bo'rtiq oyoqchalari bilan ajralib turgan. Turli naqshlar bilan bezatilgan likobchalar shohona ko'rinish kasb etadi. Boshqa kulolchilik mahsulotlariga qaraganda likobchalarning bezagi xilma-xilligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm kulolchiligi qadim zamonlardan beri rivojlanib sayqallangan san'at turidir. Rivojlangan o'rta asrlarga kelganda sopol buyumlarning tuzilishi va naqshlarida turli o'zgarishlar yuz bergan. Yaltiroq sayqal berish usuli qadimgi Kushonlar davridan ma'lum bo'lib o'rta asrlarda ancha takomillashgan. O'rta asr kulolchiligida ilk Qang' davridan ma'lum aylanma usulda naqsh berish usuli ancha ommalashadi. Bir so'z bilan aytganda Xorazm kulolchiligi o'zining nafisligi, naqshlarining antiqaligi bilan kishini o'ziga maftun qiladi.

⁶ Атагарриев Е. Материальной культуре Шехр-Ислама. – Ашхабад: Ылым, 1973. – С. 35. 54.